



ODAM SAVDOSIDAN JABRLANGAN AYOLLARGA PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISH

Butayeva Tamara Alibayevna

Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish bo'yicha

Respublika reabilitatsiya markazi psixologi

Magistr

Annotatsiya: Ushbu maqolada odam savdosidan jabrlanganlar borasida davlatimiz tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, odam savdosidan jabrlangan ayollarning duch keladigan muammolari va ularning ijtimoiy, psixologik holati tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor majburiy mehnat, seksual ekspluatasiya va majburiy nikoh kabi ekspluatasiya shakllariga qaratilgan. Shuningdek, jabrlanuvchilarga ko'rsatilayotgan yordam, reabilitatsiya jarayonlari o'rganilgan. Tadqiqot natijalari mutaxassislar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: odam savdosi, odam savdosidan jabrlangan ayollar shakllari, psixologik xususiyatlar, yordam ko'rsatish tamoyillari, odam savdosidan jabr ko'rgan shaxslarning xususiyatlari

Kirish: Odam savdosi bu — insonni hayoti, erkinligi va huquqlaridan mahrum qilib, birovlarining qo'lida qul bo'lishga mahkum etish, insonlar umriga zomin bo'lish, ularning erki, taqdiri va kelajagini oyoq osti qilishdek eng og'ir va jirkanch jinoyat sanaladi. Xozirgi taraqqiyot va rivojlanish davrida inson hayotini tasarruf etish, insonni tovar tarzida oldi-sotdi narsaga aylantirish ayrim yaxshiy, badnafs shaxslarning doimiy faoliyatiga hamda mo'maygina daromad manbaiga aylanib qolmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining so'ngi tahliliga ko'ra dunyoning 118 ta mamlakatida 136 dan oshiq millat vakillarini o'z ichiga olgan 20milliondan ko'proq kishi odam savdosi qurboniga aylanmoqda. Ushbu jinoyat orqasidan olinayotgan noqonuniy daromad 7 mlrd AQSh dollarini tashkil etmoqda. Dunyo miqyosida yiliga 600 mingdan 800 ming nafargacha ayollar va bolalar aldov yo'li bilan ekspluatasiya qilinadi. Achinarlisi shuki, odam savdosidan jabrlanganlarning 80 foizini qizlar va ayollar ba yosh bolalar tashkil etayotgani ayanchli holatdir. Odam savdosi inson, uning sha'ni, qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizligi, osoyishta turmushi hamda kelajagiga tahdid solayotgan eng katta muammolardan sanaladi. Bu savdo jamiyat taraqqiyoti va davlat



rivojiga jiddiy xavf tug'dirayotgan, o'z domiga asosan ayollarni va yoshlarni tortayotgan jinoyatchilikning xavfli ko'rinishlaridan biriga aylanib bormoqda. Mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha sa'y-harakatlarga umumsodiqlikni ko'rsatgan holda, odam savdosiga qarshi kurashga qaratilgan qator xalqaro huquqiy hujjatni ratifikasiya qilindi:

“Inson huquqlari umumjahon Deklarasiyasi” (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991 yil 30 sentyabrdagi 366-XII sonli Qarori bilan qo'shilgan), “BMTning Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya” (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 9 dekabrdagi 757-XII-sonli Qarori bilan qo'shilgan), “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt” (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 31 avgustdagi 127-I-sonli Qarori bilan ratifikasiya qilingan), “Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida Konvensiya” (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 6 maydagi 87-I-sonli Qaroriga binoan qo'shilgan), “Xalqaro Mehnat Tashkilotining Majburiy mehnatni tugatish to'g'risida Konvensiya” (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997yil 30 avgustdagi 498-I-sonli Qarori bilan ratifikasiya qilingan), “BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiya”(O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003 yil 30 avgustdagi 536-II-sonli Qarori bilan ratifikasiya qilingan), “BMTning Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanfurushlikdan foydalanishiga qarshi kurash to'g'risida Konvensiya” (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003 yil 12 dekabrdagi 576-IIsonli Qarori bilan qo'shilgan). Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi odam savdosiga qarshi kurash borasida 60 dan ortiq xalqaro hujjatlarga qo'shilgan bo'lib, xorijiy davlatlar bilan 29 ta shartnoma kelishuvlarni imzoladi.2008 yil 8 iyulda O'zbekiston Respublikasi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2000 yil 15 noyabr kuni 55/25-sonli rezolyusiyasi bilan qabul qilingan “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasini to'ldiruvchi Odam savdosining, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqida”gi protokolini ratifikasiya qildi.

O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 17 aprelda qabul qilingan “Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida”gi qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil



8iyuldagi 911-son “Odam savdosiga qarshi kurash samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini ijrosi sifatida 2008 yil noyabr oyida “Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni himoya qilish bo‘yicha Respublika reabilitatsiya markazi tashkil etildi. Hozirgi kunda ushbu markaz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy-himoya milliy agentligi tassarrufida faoliyat yuritib kelmoqda. 2023yil 1-iyunda Prezident farmoni bilan “Aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish” sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan Ijtimoiy-himoya milliy Agentligining asosiy maqsad va vazifalari fuqarolarning ijtimoiy himoyaga oid huquqlarini ta'minlash va ijtimoiy xizmatlar sifatini tubdan oshirish, og‘ir vaziyatga tushib qolgan va ushbu toifaga tushib qolish xavfi ostida bo‘lgan aholi bilan aniq manzilli ishlashni tashkil etishdir. Bundan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami davlat miqyosidagi hal etiladigan muammo sifatida qaralyotgani va davlatimiz tomonidan ularga ko‘rsatilayotgan xizmatlar va ko‘maklar muhim ahamiyat kasb etadi. Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish bo'yicha Respublika reabilitatsiya markazi jabrlangan shaxslarning yoshi, jinsi va millatidan qat'iy nazar reabilitatsiya xizmatlarini ko'rsatadi. Odam savdosidan jabrlangan shaxslar turli jins vakillari va turli yosh davrlarida bo'lishadi. Ularga psixo-ijtimoiy yordam tashkil etish yosh va jinsidan kelib chiqib, individual tarzda yondoshishdan boshlanadi. O'tkaziladigan individual psixologik terapiyalar va ijtimoiy xodim bilan o'tkaziladigan suhbatlar ham jabrlangan shaxslarning hohish-istaklarini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Odam savdosidan jabr ko'rgan shaxslar bilan ishlash jarayonida ular millatiga, jinsiga, holatiga va etnik kelib chiqishiga qarab kamsitilmasligi kerak. Beriladigan yordam turlari barcha jabrlangan shaxslarga to'liq taqdim etilishi lozim. Odam savdosidan jabr ko'rgan erkaklar, ayollar va voyaga etmaganlar bilan ishlashda har birining holatini o'ziga xosligini tushunish muhimdir. Odam savdosidan jabr ko'rgan shaxslarning xususiyatlarini ya'ni;

- ☐ yosh darajasi, jinsi, maqomi (ishchi, o‘quvchi, nafaqaxo‘r);
- ☐ diniy e'tiqodi;
- ☐ oilaviy ahvoli (oilasi bo‘lmagan holatda vasiy va homiylari);



☐ mavjud travmatik holati;

☐ eksploatasiya jarayonidagi psixo-ijtimoiy holatlarini inobatga olgan holda yordam ko'rsatiladi.

Odam savdosidan jabrlangan ayollar quyidagi shakllarda qurbon bo'ladi:

1. Majburiy mehnat – Ayollar ishlash uchun chet elga yoki boshqa hududlarga jalb qilinib, haq to'lanmaydigan yoki minimal maoshli sharoitda majburiy mehnatga duch keladi.

2. Jinsiy eksploatasiya – Bu eng keng tarqalgan shakllardan biri bo'lib, ayollar firibgarlik yoki zo'ravonlik yo'li bilan fohishabozlikka majburlanadi.

3. Qo'lga olish va zo'ravonlik – Ayrim hollarda, odam savdogarlari qurbonlarni qo'lga olib, ularni narkotiklar, zo'ravonlik va tahdid orqali o'z nazoratida ushlab turadi.

4. Iqtisodiy eksploatasiya – Ayollar kredit yoki qarz domiga tushib qolgani uchun ularni to'lov sifatida majburiy mehnatga jalb qilish holatlari ham uchraydi. (xorij davlatlarida ko'p uchraydi)

5. Nikohlar – Ba'zi hollarda, ayollar ularning xohishiga qarshi turmushga chiqariladi va er-xotin munosabatlarida qullik sharoitida yashashga majbur bo'ladi.

6. A'zolar savdosi – Eng og'ir jinoyatlardan biri bu ayollarning ichki a'zolari savdosi uchun eksploatasiya qilinishi. (xorij davlatlarida)

Odam savdosidan jabrlangan ayollar jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jabr ko'radi, shuning uchun ularga reabilitasiya, psixologik yordam va huquqiy himoya juda muhim.

Odam savdosidan jabr ko'rgan ayollar. Jinsiy zo'ravonlik qurboni bo'lgan ayollarga uyat, sharmandalik, aybdorlik hissi, atrof-muhitdagilarning salbiy fikrlarining ta'siri tufayli ruhiy tushkunlik, umidsizlik tuyg'ulari ayniqsa xarakterlidir. Atrofdagi shaxslarning "qoralashlari" ga tez-tez uchrashlari ham ularning ruhiy holatlarida murakkabliklarni vujudga keltiradi. Psixologik konsultatsiya davomida ularning shaxsiyati bilan ishlash va ularning o'z-o'ziga bo'lgan adekvat yondashuviga ahamiyat berilib, ularga tegishli bo'lgan barcha ma'lumotlar "sir" saqlash qoidasi bo'yicha tinglanishi va shaxs maxfiyligi tamoyiliga



amal qilinishi tushuntiriladi. Ular bilan ishlash jarayonida bir qancha kasalliklarning bo'lish xavfini (OIV,OITS, teri tanosil kasalliklari) va zararli odatlarning ham darajasini hisobga olish lozim. Barcha omillarni e'tiborga olgan holda kompleks psixologik terapiyalar olib boriladi.

Odam savdosidan jabr ko'rgan ayollar bilan psixologik ishlarni amalga oshirishda quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish lozim:

-odam savdosidan jabrlangan shaxsga murakkab holatga tushib yashab qola olgan shaxsligini anglatish, ya'ni hayot qiyinchiliklarida tajribali inson sifatida yondoshish;

-odam savdosidan jabr ko'rgan ayollarning kamsitilishiga va shaxsiyatiga tegishga yo'l qo'ymaslik;

-odam savdosidan jabrlangan shaxslarning shaxsiy hayoti va shaxsining "maxfiy" tutilishiga rioya qilish;

-uni "jabrdiyda" holatida qolib ketmasligi uchun psixologik qo'llab-quvvatlash Ijtimoiylashuv jarayoniga tayyorlash;

-reabilitasiya xizmatlar yakunigacha hamroxlik qilish va monitoring muddatida o'zaro aloqani uzmaslik;

Odam savdosidan jabrlangan shaxslarning ruhiy holatida patologik buzilishlar bor deb baholanganda psixolog va terapevt yo'llanmasiga ko'ra tor doiradagi mutaxassislar (nevrapatolog, psixonevrolog) ko'rigi tashkil etilishi shart.

Bundan tashqari, odam savdosidan jabrlangan shaxslarning aksariyati odatda asabiy holatda bo'lib, o'zlarining avvalgi muammolarini tan olishni va muhokama qilishni xohlamaydi. Shuningdek, ular o'zlarining hozirgi va boshdan kechirgan muammolarini muhokama qilishdan uyaladi. Shu sababli psixologik diagnostika to'g'ri amalga oshirish uchun, psixologik suhbat jarayonida qo'llaniladigan asosiy so'rovnoma va kuzatishlar kartasiga qo'shimcha ravishda bir nechta psixologik tashxis usullaridan ham foydalaniladi.



Verbal so'rovnomalar (ushbu metodda bilvosita nutq shaklida xotira, tasavvur va tafakkurga murojaat qilinadi, odam savdosidan jabrlangan shaxslar til madaniyati, ta'lim darajasi va kasbiy xususiyatlardagi farqlarga juda sezgirligini yodda saqlash lozim);

Proektiv texnikalar (shaxsning yashirin, yopiq tomonlarini aniqlashda eng samarali vositalar sifatida qaraladi). Ushbu toifadagi metodlarning afzalliklari ishonchlilik, asoslilik va aniqlik o'lovlarining mavjudligidir.

Xulosa. Odam savdosi – bu insoniyatga qarshi qaratilgan og'ir jinoyat bo'lib, u jabrlanuvchilarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy hayotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tahlillar shundan dalolat beradiki, ayollar asosan majburiy mehnat, seksual ekspluatasiya, nikohga majburlash va iqtisodiy ekspluatasiya kabi shakllarda jabr ko'rmoqda. Bu muammoning oldini olish va kamaytirish uchun reabilitasiya markazlari, huquqiy himoya mexanizmlari va ijtimoiy yordam xizmatlarining samaradorligini oshirish zarur. Shuningdek, jabrlanuvchilarning huquqiy va psixologik himoyasini kuchaytirish, jamiyatda xabardorlikni oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari odam savdosidan jabrlangan ayollarga psixologik yordamni takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni. 13.02.2001 y., № PF-3178 // *Mehnat qonunchiligiga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami*. – T.: "Adolat", 2007.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. 30.07.2019 y.

3. <https://lex.uz/docs/4616405>.

4. "Psychosocial and Mental Health Service Provision for Survivors of Trafficking", IOM, 2009;



5. *“Standard Operating Procedures to Combat Human Trafficking in Ghana”*, IOM Ghana, 2017;
6. *“Psycho-social services provision, part of multi-sectoral response to GBV Standard Operating Procedures”*, UNFPA, 2015;
7. *“Developing Standard Operating Procedures (SOPs) for a Coordinated Response to Violence against Women, including women migrant workers”*, UN Women, 2021;

